

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti



Orkestr sinfi
fanidan

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	100 000 - Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	150 000 - San'at
Ta'lim yo'nalishi:	5151600 - Xalq ijodiyoti (cholg'u jamoalariga rahbarlik)
	5111000 – Kasb ta'limi (5151600 - Xalq ijodiyoti (cholg'u jamoalariga rahbarlik))

TOSHKENT - 2015

“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası

“Orkestr sinfi” fanidan

O‘QUV -USLUBIY MAJMUA

Mazkur o‘quv uslubiy majmua 5151600 – “Xalq ijodiyoti” ta’lim yo‘nalishi “Orkestr sinfi” fani uchun mo‘ljallangan bo‘lib, badiiy jamoalar uchun uyqori malakali tashkilotchilarni tayyorlashga xizmat qiladi. Maqsad talabalarni jamoa bo‘lib ijro qilishga o‘rgatish, xalq cholgulari orkestri repertuari, turli ish uslublari, dirijyorlik tajribasi va boshqa ijrochilik san’ati qoidalari bilan tanishtirish hamda amalda bajara olish malakalarini egallashdan iborat.

Orkestr sinfi fanini o‘zlashtirgan talabalar orkestr ijrochiligi bo‘yicha keng tasavvur, orkestr ijrochiligi va adabiyoti nazariyasini bilishi, yakkaxon va jamoaviy badiiy ijrochilik ko‘nikmalari, sahna madaniyati, jamoa ishini tashkil etishni o‘zlashtirishlari lozim.

TUZUVCHI: M.G‘ofurov

O'QUV- USLUBIY MAJMUA MUNDARIJASI

№	Talablar	Yakka mashg'ulotlar uchun
1.	O'quv dasturi	+
2.	Ishchi dastur	+
3.	Ta'lim texnologiyasi (leksiya va amaliy mashg'ulotlari uchun)	+
4.	Masalalar va mashqlar to'plami (gamma va mashqlar, vokalizlar, etyud, trenajlarni berish mumkin)	+
5.	Testlar	+
6.	Nazorat uchun savollar (joriy va yakuniy nazorat)	Amaliy ijro
7.	Umumiy savollar	+
8.	Tarqatma materiallar	+ (tushuntirish)
9.	Glossariy	+
10.	Adabiyotlar ro'yxati	+
11.	Baholash mezonlari	+
12.	Kompakt disk	+

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Ro‘yxatga olindi

№ _____

2014-yil “ ____ ” _____

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2014-yil “ ____ ” _____ dagi
“ ____ ”-sonli buyrug‘i bilan
tasdiqlangan

ORKESTR SINFI

fanining

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100 000 - Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	150 000 - San’at
Ta’lim yo‘nalishi:	5151600 - Xalq ijodiyoti (cholg‘u jamoalariga rahbarlik)
	5111000 – Kasb ta’limi (5151600 - Xalq ijodiyoti (cholg‘u jamoalariga rahbarlik)

Toshkent -2014

Fanning o‘quv dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 201__-yil “__” _____dagi _____-son majlis bayoni bilan ma’qullangan

Fanning o‘quv dasturi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

M.G‘ofurov-O‘zDSMI “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası dotsenti

Taqrizchilar:

O‘.Toshmatov-O‘zDSMI “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası professor

K.T.Azimov – O‘zDK, “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrası professor

Fanning o‘quv dasturi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Ilmiy-uslubiy kengashida tavsiya qilingan (201__-yil _____dagi «__» - sonli bayonnoma)

Kirish

Havaskor badiiy jamoalar uchun yuqori malakali rahbar-tashkilotchilarni tayyorlashda orkestr sinfi fani alohida mavqega ega. Jamoaviy ijrochilik tarixi, an'anasi, tajribalarini ijodiy umumlashtirish, keng omma orasida ko'p ovozlik musiqa asarlarini o'zlashtirib targ'ibot qilish masalalarini o'rganuvchi va o'rgatuvchi fandır

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Orkestr sinfining maqsadi talabalarni jamoa bo'lib ijro qilishga o'rgatish, xalk cholg'ulari orkestri repertuari, turli ish uslublari, dirijyorlik tajribasi va boshqa ijrochilik san'ati qoidalari bilan tanishtirish hamda amalda bajara olish malakalarini egallashdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

"Orkestr sinfi" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

orkestr ijrochiligi bo'yicha keng tasavvurga ega bo'lishi, orkestr ijrochiligi va adabiyoti nazariyasini ***bilishi kerak***;

yakkaxon va jamoaviy badiiy ijrochilik ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***;

sahna madaniyati, ijro mahoratini puxta egallashi, jamoa ishini tashkil etish, ijro repertuarini tuzish, asarlarni tahlil etish, olingan nazariy bilimlarni amalda ***qo'llay bilishi lozim***.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

"Orkestr sinfi" fani asosiy ixtisoslik fanlaridan biri hisoblanib, 1-8 semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasidagi ixtisoslik fanlar: maxsus cholg'u, ansambl sinfi, dirijyorlik, musiqiy-nazariy fanlar bilan bog'liq bo'lib, yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot pedagogik texnologiyalar

"Orkestr sinfi" fanini o'rganish jarayonida o'qitishning quyidagi yangi texnologiyalaridan foydalanish samaralidir: kompyuter, audio-video vositalaridan foydalanish, yangi asarlarni tinglash, ochiq hisobot kontsertlarini o'tkazish, asarlarni tahlil etish, muammoli masalalarni keng qo'llash va boshqalar.

ASOSIY QISM

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

“Orkestr sinfi” fanining predmeti va vazifalari. Fanning nazariy va metodologik asoslari. Dirijyorning orkestrni boshqarishdagi o‘rni. Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Fanning maqsadi va vazifalari.

Jamoaviy ijrochilik yo‘llari

Turli xil uslub va janrdagi orkestr repertuari, o‘ziga xos ijrochilik - notadan o‘qish, ohangdoshlik, zarblar jo‘shqinligi, sur‘at va boshqalar, ijro vaqtida o‘zini va boshqa orkestr ovozlari eshitish, asar mazmuni hamda mohiyatini aniq va to‘g‘ri talqin qila olish.

Musiqiy savodxonlik

Orkestr jamoasidagi cholg‘ularning ijro uslublari, xolati, diapozoni, shrtixlar, badiiy bezaklar, partiyalarda yozilgan belgilarni aniq tasavvur qilish, nyuansalar, dirijyorning ifoda harakatlari, mazmuni va boshqalar.

Amaliy mashg'ulotlar

Orkestr cholg‘u turlarini bilish, sozlash, ijro etiladigan asar partiyasini jamoa tarkibida xatosiz ijro qilish, sahna madaniyati, dirijyor harakatiga sezgir bo‘lish va uning talablarini to‘g‘ri bajarish, ritmik, ohangdoshlik, dinamik, zarblar, usul va uslublarni jamoa bo‘lib ijroda bajara olish.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ishning asosiy maqsadi – bakalavrlarda muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda rejalashtirishdan iborat. Mustaqil ishning tashkiliy shakllari quyidagilardan iborat:

- orkestr ijrochilik san’atiga oid materiallar bilan tanishib borish;
- badiiy jamoalar faoliyati va ijodini yaqindan kuzatish;
- ijodiy o‘zlashtirishga harakat qilish;
- amaliyotda qo‘llay bilish;
- audio va video materiallar to‘plash;
- musiqiy savodxonlikni takomillashtirish ustida ishlash;
- internet materiallari bilan muntazam tanishib borish.

Dasturning informatsion-uslubiy ta’minoti

Ushbu fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari pedagogik va axborot texnologiyalari qo‘llanishi nazarda tutilgan. Asar partiturasini yozishda kompyuterdan foydalanish, amaliy mashg‘ulotlarda kichik guruhlar bilan ijro

uslublarini o'zlashtirish, asar yuzasidan fikr bildirish, orkestr jamoasi ijrosida badiiy ijro uslublarining yagona shaklidan samarali foydalanish va amalda qo'llash nazarda tutiladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati **Rahbariy adabiyotlar**

1. Каримов И.А. “Ўзбекистон демократик тараққиётнинг янги босқичида” Т. 2005й.
2. Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. Т. Маънавият, 2008й.

Darsliklar va o'quv qo'llanmalar

3. Одилов А. “Ўзбек халқ чолғуларида ижрочилик тарихи”. Т 1995й.
4. Акбаров И. Муסיқа луғати. Т 1998й.
5. “Баркамол авлод йили”, “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик йили” Давлат дастурлари. Т.”Ўзбекистон” 2010, 2011й.
6. Азимов К. “Ўзбек халқ чолғулари ҳаваскорлик оркестри билан ишлаш услубиёти.” Т. 2002й.
7. Иброҳимова Н. Тошматов. Ў. “Оркестр синфи”. 2002й.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Азимов К “Ўзбекистон дирижёрлари”.Т. 2002й.
2. Мушегян-Коннова Е. Партитура ўқиш ва чолғулаштириш.Т.2007й.
3. Абдурахимова Ф. “Сўғдиёна” Ўзбек халқ чолғулари камер оркестри бисотидан. Т. 2005й.
4. Ливиев А. Ўзбек миллий чолғусозлик тарихи. Т.2005й.
5. Мушегян-Коннова Е. Класс ансамбля. Т. 2004й.
6. Отаев Б. Дирижёрлик. Т. 2003й.
7. Петросянц А. Инструментоведение. Т.1990й.
8. Тошматов Э. Дирижёрлик. Т. 2006й.
9. Турсунов. Р.Ашула ва ракс ансамбли билан ишлаш услубиёти.Т. 2002й.
- 10.Кузнецова Г. Содиқов Ф. Государственный оркестр народных инструментов Узбекистана имени Тухтасина Джалилова.Т. 1990й.
- 11.Тошматов Э. Тошматов Ў. Ансамбль синфи.Т.2007й.
12. Turatov S. Orkestr sinfi Т. 2009-у.

www.Ziyonet.uz

www.nota.ru

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT
SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

Ro‘yxatga olindi:

№ _____
2015 yil “ ____ ” _____

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

_____ R.Ismoilov
“ ____ ” _____ 2015 yil

ORKESTR SINFI

fanining

ISHCHI O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100 000	–	Gumanitar
Ta’lim sohasi:	150 000	–	San’at
	110 000	–	Pedagogika
Ta’lim yo‘nalishi:	5151600	–	Xalq ijodiyoti (cholg‘u jamoalariga rahbarlik)
	5111000	–	Kasb ta’limi (5151600-Xalq ijodiyoti (cholg‘u jamoalariga rahbarlik)

Toshkent - 2015

Fanning ishchi o‘quv dasturi o‘quv, ishchi o‘quv reja va o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

M.G‘ofurov – O‘zDSMI, “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası dotsenti

Taqrizchilar:

O‘.Toshmatov – O‘zDSMI, “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası professor

S.Jumayev – O‘zDSMI, “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası professor v.b.

Fanning ishchi o‘quv dasturi “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasining 2015 yil “____” _____dagi “____” – son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

O‘.Toshmatov

Fanning ishchi o‘quv dasturi “Xalq ijodiyoti” fakultet kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2015 yil ____ avgustdagi ____-sonli bayonnoma)

Fakultet kengashi raisi:

S.Jumayev

Kelishildi:

O‘quv bo‘limi boshlig‘i

A.N.O‘rozov

Kirish

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga ko'ra "San'at" ta'lim sohasining "Xalq ijodiyoti" ta'lim yo'nalishi negizidagi "Cholg'u jamoalariga rahbarlik" ta'lim yo'nalishi tarkibida o'qitiladigan "Orkestr sinfi" fani dasturi sohaga zarur bo'ladigan: jamoa ijrochiligi tarixi, an'anasi, ko'p ovozli musiqa asarlari targ'iboti, jamoa bo'lib ijro qilishga o'rgatish, xalq cholg'ulari orkestri repertuari, turli ijro uslublari, dirijyorlik tajribasi va boshqa ijrochilik san'ati qoidalari bilan bog'liq tushunchalarini o'z ichiga olgan bo'limlaridan tashkil topgan.

Fanining maqsad va vazifalari

"Orkestr sinfi" fani ixtisoslik fanlar majmuasiga taalluqli bo'lib, bakalavrlarga 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8-semestrlarda o'tiladi.

"Orkestr sinfi" fanining bosh muhim vazifasi, talabalarga jamoa bo'lib ijro qilishga o'rgatish, xalq cholg'ulari orkestri repertuari, turli ijro va ish uslublari, dirijyorlik tajribasi va boshqa ijrochilik san'ati qoidalari muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'ladigan tayanch bilimlarni beradi.

Fan bo'yicha talabaning malakasiga qo'yiladigan talablar

Bakalavrlar "Orkestr sinfi" fanini o'rganish jarayonida quyidagilarni bajara olishi lozim:

- badiiy jamoalarni tashkil etishi;
- badiiy jamoalarni boshqarishi;
- sahna madaniyati;
- ijro mahorati;
- ijro repertuarini tuzishi;
- musiqiy asarlarni chuqur tahlil eta olishi;
- cholg'ularning ijro imkoniyatlarini bilishi;
- orkestr uchun asarlarni moslashtirishi va cholg'ulashtirishi;
- olingan nazariy bilimlarni amalda qo'llay bilishi;
- jamoaviy ijro boshqaruvi faoliyatini bilishi;
- turli janrdagi o'zbek va boshqa xalqlarning musiqiy namunalari, o'zbek va jahon kompozitorlar asarlari hamda zamonaviy ijro uslublariidan ijodiy foydalanishi.

O'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Mazkur fan 5151600-Xalq ijodiyoti (Cholg'u jamoalariga rahbarlik) ta'lim yo'nalishining o'quv rejasidagi "Dirijyorlik", "Ansaml sinfi", "Maxsus cholg'u", "Cholg'ushunoslik", "Cholg'ulashtirish", "Partitura o'qish", "Xalq cholg'ularini o'rganish", "Musiqa asarlari tahlili", "Garmoniya" kabi fanlar bilan uzviy bog'liqdir.

Fanni o'rganishda "San'at va madaniyat kollejlari hamda akademik litseylar" musiqiy-nazariy fanlardan olingan nazariy va amaliy bilimlar zarur bo'lsa, o'z navbatida bu fandan olingan bilimlar hozirgi kunda cholg'u jamoalariga rahbarlik san'ati umumiy nazariyasi va amaliyotini chuqur o'zlashtirishda muhim vosita vazifasini o'taydi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, musiqiy asar bo'yicha muammoli vaziyatlarni o'rta tashlash, darslarni amaliy tarzda qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia vositalaridan foydalanish, talabalarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, talabalar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

“Orkestr sinfi” predmetini olib borishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni faollashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini faollashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash – **kompyuterda musiqiy dasturlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash orqali amalga oshiriladi.**

O'qitishni tashkil etish shakllari: yakka, duet, trio, kvartet, kvintet, jo'navozlik va o'zaro o'rganishga asoslangan jamoaviylik.

O'qitish vositalari: xalq cholg'ulari, musiqiy asarlar, nota matnlari bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan

maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat amaliy mashg'ulotlar, auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida hamda butun kurs davomida o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida konsert dasturi shaklida ijodiy ishlar baholanadi.

“Orkestr sinfi” fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, musiqiy "ENKORE" hamda “SIBELIUS-6” dasturlaridan foydalaniladi. Ijro mahorati, konsert ijrochiligi hamda tayanch so'z va iboralar asosida joriy va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

“Orkestr sinfi” fanidan amaliy mashg'ulotlarning taxminiy mavzulari va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

1-semestr

Jami: 106 soat. Amaliy: 72 soat. Mustaqil ta'lim 34 soat

№	Asar nomi	Asar muallifi	Adabiyot	Bet (Izoh)
1.	“O‘zbekiston davlat madhiyasi”	A.Oripov so‘zi, M.Burxonov musiqasi	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
2.	“Bog‘larda bahor”	Q.Oripov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
3.	“Ey nozanin”	O‘zbek xalq qo‘shig‘i	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
4.	“Qalbimda”	Sayfi Jalil	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
5.	“Yoshlik”	A.Agadjikov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
6.	“Tanets”	A.Varelas	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura

2-semestr

Jami: 106 soat. Amaliy: 72 soat. Mustaqil ta'lim 34 soat

№	Asar nomi	Asar muallifi	Adabiyot	Bet (Izoh)
1.	“Qaydasan”	I.Akbarov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
2.	“Meni eslagin” romans	B.Umidjonov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
3.	“Rok qashqarcha”	Xalq kuyi	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
4.	“Pomir lirik qo‘shig‘i”	Y.Sabzanov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
5.	“Eksprompt”	A.Arutunyan	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
6.	“Vals”	E.Doga	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura

3-semestr

Jami: 160 soat. Amaliy: 108 soat. Mustaqil ta'lim 52 soat

№	Asar nomi	Asar muallifi	Adabiyot	Bet (Izoh)
1.	“Tarona syuita”	G‘.Qodirov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
2.	“Yalla”	T.Jalilov, G.Sobitov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
3.	“Yurakda sevinch”	Tojik xalq kuyi	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
4.	“Navo taralsin”	K.Komilov, T.Toshmatov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
5.	“Podrajenije narodnomu”	A.Xachaturyan	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
6.	“Vals” “Avtomobildan saqlaning” kinofilmidan	A.Petrov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura

4-semestr

Jami: 160 soat. Amaliy: 108 soat. Mustaqil ta'lim 52 soat

№	Asar nomi	Asar muallifi	Adabiyot	Bet (Izoh)
1.	“Raqs”	S.Xayitboyev	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
2.	“Bittasi”	SH.Ramazanov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
3.	“Xor” (Takatum) “Tog‘ go‘zali” spektaklidan	A.Muhamedov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
4.	“Sevgi favvoralari”	F.Alimov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
5.	“Baxt bilan suhbat” “Ivan Grozniy kasbini o‘zgartiradi” kinofilmdan	A.Zatsepin	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
6.	“Karmen” operasidan uvertyura	J.Bize	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura

5-semestr

Jami: 214 soat. Amaliy: 144 soat. Mustaqil ta'lim 70 soat

№	Asar nomi	Asar muallifi	Adabiyot	Bet (Izoh)
1.	“Qiz nozi”	T.Toshmatov, Q.Oripov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
2.	“Garduni segoh”	O‘zbek xalq kuyi	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
3.	“Do‘stlik marshi”	Y.Quchqarov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
4.	“Turkcha qo‘shiq”	O‘.Toshmatov qayta ishlagan	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
5.	“YA vstretil devushku”	A.Babayev	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura

6.	“Menuet”	I.Gaydn	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
----	----------	---------	---	-----------

6-semestr

Jami: 214 soat. Amaliy: 144 soat. Mustaqil ta’lim 70 soat

№	Asar nomi	Bastakor	Adabiyot	Bet (Izoh)
1.	“Qizlar raqsi”	F.Olimov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
2.	“Ufori segoh”	Xalq kuyi	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
3.	“Ey sohibi dil”	S.Xayitboyev	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
4.	“Vostochniy tanets”	A.Tadjiyev	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
5.	“Gulchehraning faryodi” “Arshin mol olan” musiqali dramasidan	U.Gadjibekov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
6.	“Pesenka Gertsoga” iz operi Rigoletta	Dj. Verdi	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura

7-semestr

Jami: 214 soat. Amaliy: 144 soat. Mustaqil ta’lim 70 soat

№	Asar nomi	Asar muallifi	Adabiyot	Bet (Izoh)
1.	“To‘yona”	F.Alimov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
2.	“Oh kim ishq”	A.Navoiy g‘azali, A.Ismoilov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
3.	“Anvar va Ra’no dueti” O‘tgan kunlar kinofilmidan	F.Alimov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
4.	“Arabcha popuri”	O‘.Toshmatov qayta ishlagan	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura

5.	“Jovoronok”	Moldovan xalq kuyi, Gnutov qayta ishlagan	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
6.	“Kontsert variatsiyasi” “Kalinka” rus xalq kuyi asosida	V.Gorodovskiy	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura

8-semestr

Jami: 150 soat. Amaliy: 100 soat. Mustaqil ta’lim 50 soat

№	Asar nomi	Bastakor	Adabiyot	Bet (Izoh)
1.	Uvertyura “Shodiyona”	F.Alimov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
2.	“Ey sabo”	D.Zokirov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
3.	“Yaxshilig‘”	M.To‘xtasinov	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
4.	“Ruskaya plyaska”	R.Chaykovskiy	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
5.	“Lezginka” Gayane baletidan	A.Xachaturyan	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura
6.	“Hech kimga bermaymiz seni O‘zbekiston !”	Y.Usmonova	“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası kutubxonasi	Partitura

Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (amaliy) musiqiy asarlarning mantiqiy ketma-ketligi oddiydan murakkabga tomon yo‘naltiriladi. Har bir asarning mohiyati asosiy tushunchalar va kichik-kichik frazalar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo‘yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar to‘la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo‘yiladigan talab musiqiy asarlarning darajasi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo‘layotgan ma‘naviy-ma‘rifiy va boshqa sohalaridagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so‘ngi yutuqlari e‘tiborga olinishi tavsiya etiladi.

Amaliy mashg‘ulotlar

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri. “Orkestr sinfi” fani, predmeti va vazifalari. Xalq cholg‘ulari orkestri to‘liq tarkibi, puflama cholg‘ular guruhi, urma torli cholg‘ular

guruhi, mezrobli cholg'ular guruhi, urma zarbli cholg'ular guruhi, kamonli cholg'ular guruhi va yakkaxonlar bilan amaliy ishlash.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: gammalar, arpedjiolar, akkordlar, sifralarga bo'lib ijodiy ishlash, yo'naltirish.

Adabiyotlar: Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan

Amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladigan soatlarda o'zbek va jahon xalqlari kuy-qo'shiqlari hamda o'zbek va jahon kompozitorlari tomonidan yaratilgan asarlar yaratilishi tarixi, mavzui, janri, shakli, tonalligi, dikamik belgilari, asar mualliflari haqida ma'lumot, ijro etilgan asarning mashhur ijrochilari haqidagi ma'lumotlar o'rganiladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

“Orkestr sinfi” bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilar rahbarligida amaliy ijro mahoratiga ega bo'ladilar. Auditoriyadan tashqarida darslarga tayyorlanadilar, musiqiy adabiyotlardan foydalanadilar, uyga vazifa sifatida berilgan musiqiy asarlar bo'yicha qo'shimcha ma'lumot to'playdilar va tayyorlanadilar. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi musiqiy asarlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqdaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar, yangi konsert dasturlari tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“Orkestr sinfi” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi katta mavzu ko'rinishida shakllantirilgan.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

T/	Mustaqil ta'lim mavzulari	Beriladigan topshiriqlar	Bajarish muddati	Hajmi soatda
1	Fanning maqsadi va vazifalari, o'rganilgan asarlarni qo'shimcha adabiyotlar, ya'ni CD, DVD, nota matnlari bilan mustahkamlash	Individual topshiriqlarni bajarish	1-4 haftalar	16
2	O'rganilgan asarlarni o'zbek xalq cholg'ulari orkestri va turli jamoalar ijrosidagi yozuvlarni eshitish hamda qo'shimcha partituralarni o'rganish orqali mustahkamlash	Individual topshiriqlarni bajarish	5-8 haftalar	16
3	O'rganilgan asarlarni o'zbek xalq cholg'ularida mahoratli sozandalar ijrosini eshitish orqali va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustahkamlash	Individual topshiriqlarni bajarish	9-12 haftalar	18
4	Semestr davomida o'rganilgan asarlarni qo'shimcha adabiyotlar bilan mustahkamlash	Individual topshiriqlarni bajarish, musiqiy asar matnini yodlash	13-18 haftalar	20

Dasturning informatsion uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash nazarda tutilgan:

- musiqiy asarlar ijrosida o'zbek xalq cholg'ulari, zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida musiqiy dasturlardan foydalaniladi;
- musiqiy asarlar matnini o'rganish va tahlil qilishda gammalar, arpedjiolar, akkordlar, sifralarga bo'lib ijodiy ishlash va boshqa pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi;
- amaliy mashg'ulotlarida sozandalar, cholg'u guruhlar o'rtasida turli musobaqalar, guruhli ijro usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

“Orkestr sinfi” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezonlari.

“Orkestr sinfi” fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy hamda yakuniy nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** - talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash hamda baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda amaliy ijro uy vazifalarining bajarilishini nazorat qilish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

- **yakuniy nazorat (YAN)** - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan o'rganilgan musiqiy asarlar bo'yicha konsert dasturini namoyish qilish orqali baholanadi.

JN o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda **JN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **JN** qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan “Ichki nazorat va monitoring” bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YAN** ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda **YAN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YAN** qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

“Orkestr sinfi” fani bo'yicha talabalarining semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 balli tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi: Y.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.ga taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarining bilim darajasi
86-100	A'lo	O'zbek xalq cholg'ulari orkestrlari to'g'risida aniq tasavvur va bilimga ega bo'lish. Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, ijro etish. Tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, ijro eta olish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, ijro eta olish. Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik. Ijro eta olmaslik.

Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

Talabalarining o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

$$V \cdot O'$$

Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha anikdanadi: $K =$

$$\frac{100}{V \cdot O'}$$

bu yerda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); O' -fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

- **JN** turlari bo'yicha 55 ball va undan yuqori ball to'plagan talaba fanni "o'zlashtirgan" deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

- Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

- **JN** va **YAN** turlari kalendar tematik rejaqa muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YAN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

- **JN** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy nazorat uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

- Talabaning semestrda **JN** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u "akademik qarzdor" deb hisoblanadi.

- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

- Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

- Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

T/R	Ko'rsatkichlar	JN ballari				
		Mak. ball	1-JN	2-JN	3-JN	4-JN
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Yakka mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy boshqaruv mahoratining holati.	17	0-4	0-4	0-4	0-5
2	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Yakka mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy boshqaruv mahoratining holati.	18	0-4	0-4	0-5	0-5

3	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Yakka mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy boshqaruv mahoratining holati.	17	0-4	0-5	0-4	0-4
4	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	18	0-5	0-5	0-4	0-4
	Jami JN ballari	70	17	18	17	18

YAN konsert dasturi ijrosi natijasiga qarab maksimal 30 ball orqali baholanadi.

Yakuniy nazoratda konsert dasturi ijrosini baholash mezonlari

Yakuniy nazorat konsert shaklida o'tkaziladi. Konsert sifati va ijro mahorati orqali baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov.I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" T.; Ma'naviyat-2008 y.
2. Азимов К.Т. "Методика работы с самодейтельным оркестром узбекских народных инструментов" Т.; 1988 й.
3. Ishmuxamedov R. "Ta'limda innovation texnologiyalar" T.; Istedod. 2008 y.
4. Azimov K. O'zbekiston dirijyorlari. T.2001y.
5. Toshmatov E. Dirijyorlik. T. 2006, 2008y.
6. Kanershteyn G. O dirijirovanii. M. 1972y.
7. G'ofurov M. Orkestr sinfi. T.2011y.
8. Turatov S. Orkestr sinfi. T.2012y.
9. "Cholg'u ijrochiligi" kafedrasi kutubxonasi fondidagi partituralar.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ливиев А. Ўзбек миллий чолғусозлик тарихи . Т. 2005й.
2. Акбаров И. Музыка луғати. Т.1998й.
3. M.Shamaxmudova Xor dirijyorligi lug'ati. T. 2009-y.
4. J.Shukurov Xor dirijyorligi. T. 2009-y.

Internet saytlari

1. www.artist.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.edu.uz
4. tdpu-INTRANET.Ped
5. www.jazz.ru
6. www.atmuzik.ru

7. www.universalia.nov.ru / instruments.
8. www.muzik.uz
9. www.classicmuzik.uz
10. www.ixlos.uz
11. <http://forum.ziyouz.com>
12. www.ziynet.uz
13. www.nota.ru

Ta'lim texnologiyasi (leksiya va amaliy mashg'ulotlar uchun)

Asarlar mazmunini yoritish bo'yicha qo'llaniladigan pedagogik texnologiya va interfaol metodlar: "Nota matnini tez va to'g'ri o'qish", "Guruhlar o'rtasida raqobat", "Amaliy ijroni tanqidiy tahlil qilish".

TEXNOLOGIK KARTA

Mavzu	"Orkestr sinfi" fanining maqsadi va vazifasi
Maqsad va vazifalar	Talabalarga birgalikda ijro etishning mohiyati, cholg'ular, cholg'u guruhlar va ijro uslublarga oid fikrlarning vujudga kelishini tushuntirish. Tarqatilgan nota materiallarini talabalar tomonidan qanday o'zlashtirilganligini, ijro etilishini nazorat qilish, ularning bilimlarini baholash.
O'quv jarayonining mazmuni	Orkestr tushunchasining mohiyati. Uslublar.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<u>Metod:</u> Og'zaki bayon, kuylab berish, biror cholg'uda ijro etib berish. <u>Forma:</u> Amaliy. <u>Vosita:</u> Encore, Sibelius 1,2,3,4,5,6 dasturlari, CD, DVD yozuvlar. <u>Usul:</u> Nota matnlari. <u>Nazorat:</u> Og'zaki, amaliy ijro, bir-birini eshitish. <u>Baholash:</u> Adolatli. Oshkoralik. Rag'batlantirish.
Kutiladigan natijalar	<u>O'qituvchi:</u> Asarni qisqa vaqt ichida barcha talabalar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi. Ijro sifati yaxshilanadi. Ijro mahorati va talabalar faolligini oshiradi. Talabalarda darsga nisbatan qiziqishni uyg'otadi. Bir vaqtning o'zida ko'pchilik talabalarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadga erishadi. <u>Talaba:</u> Jamoa bo'lib ijro etishga oid yangi bilimlarga ega bo'ladi. Orkestr ijrosi va uni boshqarish bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Ijroda badiiylik rivojlanadi, eslab qolish qobiliyati kuchayadi. Bir-birini eshitishni o'rganadi. Dars jarayonida ko'p musiqiy ma'lumotlarga ega bo'ladi.
Kelgusi natijalar	<u>O'qituvchi:</u> Amaliy ijroni o'zlashtirish va dars jarayoniga tadbiq etish, takomillashtirish, o'z ustida ishlash, asarni hayotiy voqealar bilan bog'lash. O'zining pedagogik va metodik mahoratini oshirish. <u>Talaba:</u> Amaliy ijro asosida nota matnlari bilan mustaqil ishlashni o'rganish, o'z ijrosini jamoa ijrosiga moslashtirish. IIIu asar asosida qo'shimcha materiallarni topish, ularni tahlil qilish. Ko'nikma va malakalarni hosil qilish.

Semestrlar	Amaliy mashg'ulotlar	Mustaqil ta'lim
1-semestr	40	24
2-semestr	21	14
3-semestr	40	24
4-semestr	15	12
5-semestr	40	24
6-semestr	28	20
7-semestr	80	50
8-semestr	24	14
Jami	288 soat	182 soat

1-semestr

№	Asarlar nomi	Amaliy	Mustaqil ta'lim
1	“O‘zbekiston” M.Mirzayev musiqasi.	10	6
2	“Qo‘shnay navosi” S.Hayitboyev musiqasi.	10	6
3	“Umumiy raqs” I.Akbarov musiqasi.	10	6
4	“Davluri” N.Narimanidze musiqasi.	10	6
	JAMI:	40	24

1-asar: “O‘zbekistonim” Jumaniyoz Jabbarov she’ri, Sulton Hayitboyev musiqasi. Asar “re” major tonalligida, o‘lchovi 6/8, vals usuli va tezligida yozilgan. 8 ta sifraga ajratilgan bo‘lib, 1,2,4-sifralarga repriza qo‘yilgan. 5 sifrada 4/4 o‘lchoviga o‘tiladi va erkin ijro etiladi (kadensiya). 6 sifradan 6/8 o‘lchoviga o‘tiladi va boshlang‘ich sur‘atga qaytiladi.

2-asar: “Qo‘shnay navosi” Sulton Hayitboyev musiqasi. Qo‘shnay va o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun maxsus yozilgan asar. “Re” minor tonalligida, o‘lchovi 4/4 bo‘lib, Andante sur‘atida ijro etiladi. Asar 7 ta sifraga ajratilgan bo‘lib, 3 va 7 sifralarda repriza qo‘yilgan. Dinamik tushlarga e‘tibor bergan holda ijro qilish zarur.

3-asar: “Umumiy raqs” I.Akbarovning “Qonli to‘y” musiqali dramasidan. Asar “sol” major tonalligida 3/4 takt o‘lchovida boshlanib, 9–sifrada “do” minor tonalligiga va 2/4 o‘lchoviga o‘tiladi. 15–sifraning 5-taktidan dastlabki tonallikka qaytadi. Asar 16 ta sifraga ajratilgan bo‘lib, Allegro sur‘atda ijro etiladi.

4-asar: “Davluri” N.Narimanidze musiqasi. Asar “lya” minor tonalligida, 2/4 o‘lchovida, Vivo sur‘atida yozilgan. 10 ta sifraga ajratilgan. Ijroda doira o‘rniga “Dovul” cholg‘usini qo‘llash yaxshi effekt beradi.

2-semestr

№	Asarlar nomi	Amaliy	Mustaqil ta'lim
5	“Ilodlik raqsi” S.Rustamov musiqasi.	5	3
6	“Polonez” M.Oginskiy musiqasi.	5	3
7	“Hech kimga bermaymiz seni O‘zbekiston” Muhammad IOsuf she’ri, IO.Usmanova musiqasi.	5	4
8	“Turkcha qo‘shiq” O‘.Toshmatov qayta ishlagan.	6	4
	JAMI:	21	14

5-asar: “Ilodlik raqsi” S.Rustamov musiqasi. Asar “Iya” minor tonalligida, 6/8 o‘lchovida, Moderato sur’atida yozilgan. 14 ta sifraga ajratilgan bo‘lib, 3 sifradan 6-sifraning 10 taktigacha repriza qo‘yilgan. 7-sifradan 6/16 o‘lchoviga o‘tadi va 11-sifradan Allegro sur’atda ijro etiladi.

6-asar: “Polonez” M.Oginskiy musiqasi. Asar “Iya” minor tonalligida, 3/4 o‘lchovida, Moderato sur’atida yozilgan. 7 ta sifraga ajratilgan. 3-sifraga bir takt yetmasdan ritenute (rit.) bor. 3-sifradan A tempo sur’atiga qaytiladi. 6-sifraga bir takt ritenute (rit.) bo‘lib, 6-sifradan A tempo sur’atiga qaytiladi.

7-asar: “Hech kimga bermaymiz seni O‘zbekiston” (Yoshlar madhiyasi) M.IOsuf she’ri, IO.Usmanova musiqasi. Asar “Iya” minor tonalligida boshlanib, 7-sifraning 3-taktidan si-bemol minor tonalligiga o‘tiladi. 4/4 o‘lchovida bo‘lib, Andantino sur’atida yozilgan. 7 ta sifraga ajratilgan.

